

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN ASAB KASALLIKLARIDA HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Asab kasalliklarida hamshiralik ishi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Asab kasalliklarida hamshiralik ishi

1. Nevrologiya
2. Asab tizimi kasallilari
3. Asab tizimining yuqumli , ishemik, onkologik , kasalliklari va bosh va orqa miya shikastlari ;
4. Psixiatriya.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1.1	Nevrologiya	Nevrologiya va psixiatriya fanining rivojlanish tarixini, Asab tizimi anatomiyasini, fiziologiyasi, asab to'qimasi haqida ma'lumotlarni biladi, asab tizimi kasalliklari simptomologiyasi, markaziy asab tizimi tuzilishi, fiziologiyasi, zararlanishi va tekshirish usullarini biladi. Periferik asab tizimi anatomiyasi va fiziologiyasi, zararlanishi, tekshirish usullarini, harakat tizimi, sezgi tizimi, vegetative asab tizimi, reflekslar anatomiyasi, fiziologiyasi, zararlanishi va tekshirish usullari bo'yicha bilim va ko'nikmalariga ega.	25 %	10 ta
1.2	Asab tizimi kasalliklari	Asab kasalliklari bilan og'rig'an bemorlarni tekshirish va davolash usullari, bemorlarni qabul qilish, parvarish qilish, radikulitlar, nevritlar, poliradikulonevropatiya kasalliklari kelib chiqishi, simptomatikasi tekshirish va davolash usullari bo'yicha bilim amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarni ega.	25 %	10 ta
1.3	Asab tizimining yuqumli, ishemik, onkologik, kasalliklari va bosh va orqa miya shikastlari	Markaziy asab tizimi yuqumli kasalliklari, meningitlar, epidemik ensefalit, o'tkir poliomiyelit, miyelit, OITS, grippda asab tizimining zararlanishi, kasalliklarning simptomatikasi, tekshirish va davolash-parvarishlash usullari haqida bilim va ko'nikmalarni bo'ladi. Bosh va orqa miyada qon aylanishi buzilishi kasalliklari, asab tizimi o'sma kasalliklari, orqa miya va bosh miya shikastlari, irsiy kasalliklari, migren, botulizm, kasbga aloqadir kasalliklar, mushaklar distrofiyasi va vegetativ qon tomirlar distoniyasi kasalliklari haqida ma'lumot, bilim va ko'nikmalarni ega bo'ladi.	25 %	10 ta
1.4	Psixiatriya	Ruhiy kasalliklar va ularning belgilari, turlari, asosiy sindromlari, psixonevrologik kasalliklar va ularga tibbiy yordamni tashkil qilish, parvarishlash, tug'ruqdan keyingi psixozlar, shizofreniya, maniakal-depressiv psixozlar, alkogolizm, giyohvandlik, ateroskleroz, epilepsiya, psixogeniyalar,	25 %	10 ta

		psixopatiyalar, nevrozlar, nevrasteniyalar, isteriya, miyadan ketmaydigan holatlar nevrozi, bosh miya jarohatida uchraydigan ruhiy o'zgarishlar haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.		
--	--	--	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	25 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	25 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt me'yori

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini

testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. X.Q.Shodmonov, Sh.Eshmurodov, O.T.Tursunova "Asab va ruhiy kasalliklar" Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 2014-yil.
2. G.I.Islomova "Asab-ruhiy kasalliklar va narkologiyada hamshiralik ishi" Toshkent "Osiyo nashriyoti" 2024 yil.
3. G.S.Raximboyeva "Asab kasalliklarida hamshiralik ishi" Toshkent "Voris-nashriyot" 2014 yil.
4. B.A.Toshmatov, Sh.Sh.Magzumova " Psixiatriya va narkologiyada hamshiralik ishi " Toshkent "Iqtisod -moliya" nashriyoti 2008 yil.
5. Z.I. Ibodullayev "Umumiy nevrologiya" Toshkent "Zamin-nashr" nashriyoti 2021 yil.